



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-may

№ 2019

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Imomov Roziq Turonovich – yozma arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Pirmatov Elyarjan Ilxamovich – yozma arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Olmaliq shahar sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Maxkamova Nargiza Bilimliyeva – yozma arizasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 2-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Abbosov Zafar Ravshanovich – odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida qonuniylikni buzganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Bo‘ka tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov